



SHONLI TARIX, BUYUK ZOTLARING MUNOSIB VORISLARIMIZ

Ulug‘ mutafakkirlarimizdan biri “Tarix — buyuk murabbiy” degani chin haqiqat. Biz aksar holatlarda, ayniqsa, o‘tmish bilan bugungi kunimizni qiyoslayotganimizda, albatta, tarixga murojaat qilamiz, voqea-hodisalarga tarixiy baho beramiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham ulkan islohotlar, mislsiz ijtimoiy yangilanishlar haqida so‘z yuritayotganida, “Tariximizga nazar soladigan bo‘lsak...” degan iborani ko‘p yodimizga soladi.

Bu mantiqan eng to‘g‘ri uslub, eng to‘g‘ri yo‘ldir. Yaqinda davlatimiz rahbari imzolagan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaror bugun bunyod etilayotgan yangi O‘zbekistonimizga ham uzoq, ham yaqin tariximizdan turib baho berishimizni taqozo etadi. 34 yil tarix o‘lchovida katta davr emas aslida. Yangi

O‘zbekistonga poydevor qo‘yilgan 7-8 yil esa juda-juda qisqa muddat. Mana shu yaqin o‘tmishimizda yurtimizda ro‘y bergan ulkan o‘zgarishlar, yangilanishlarni xayolingizdan o‘tkazsangiz, tarix zarvaralaridan joy olgan ko‘plab muhim voqealarga guvoh bo‘lasiz.

Bir misol, yaqin yillargacha Sergeli tumaniga yer usti metrosi keladi deb kim o‘ylagan edi? Ayrimlar 2020-yil 26-dekabr kuni uzunligi 7,1 kilometr bo‘lgan yangi metro liniyasi foydalanishga topshirilgan tarixiy sanani bugun esdan chiqargan bo‘lishi mumkin. Chunki ko‘p vaqt o‘tmay, Qo‘ylik

bozoridan Do‘stlik mavzesigacha bo‘lgan metropoliten ham ishga tushdi. Endi bu sohada yangi loyihalar, yangi bunyodkorlik qadamlari tashlanmoqda. Yaqin kelajakda esa metro tufayli TTZ ham “bir qadam” bo‘lib qoladi.

Bundan 15 yil avval kuyovim Turkiyadan mehmon bo‘lib keldi. Ertalab Toshkent aeroportiga borib, ancha vaqt kutib qoldik. Qariyb ikki yarim soat tekshiruvlarni navbatda turishlardan behol bo‘lgan kuyovim “Dunyoning ko‘p aeroportlarini ko‘rganmanu, lekin bunaqa azobu qiyinchiliklarga uchramagan edim”, deb noliddi. Hozir Toshkent xalqaro aeroportidagi qulayliklarni yurtodoshlarimiz ham, mehmonlarimiz ham mamnuniyat bilan tilga oladi. O‘sha ilk safari chog‘ida Toshkentga kelganidan afsuslangan kuyovim hozir biror joyga safarga boradigan bo‘lsa, Toshkent aeroportidan tranzit sifatida foydalanadi.

► Davomi 2-betda



MUSTAQILLIK – OTA-BOBOLAR ORZUSI, KELAJAK AVLODLAR IFTIXORI, MILLAT QALBIDAGI ULUG‘ TUYG‘U

Mamlakatimiz mustaqilligi tarixidagi 34 yil — xalqimizning kurash va yuksalish yo‘lidir. Bu yillarda olijanob xalqimiz ne-ne sinovlar, mashaqqatlarni yengib o‘tib, istiqbolimizni har tomonlamma mustahkamlashga intilmoqda. Shu ma’noda, bu davr mustaqillikni qo‘lga kiritish, siyosiy mustaqillikni iqtisodiy mustaqillik bilan mustahkamlash, turli to‘siqlarni yengib o‘tish va yangi marralarni zabt etish fursati bo‘ldi, deyish mumkin.

► Davomi 2-betda

ISHSIZLARGA HUNAR O‘RGATISH RIZQ YO‘LINI OCHISH DEMAKDIR

O‘tgan oy mamlakatimiz hayotida yorqin iz qoldiradigan muhim tarixiy voqealarga boy bo‘ldi. 10-12-iyun kunlari bo‘lib o‘tgan to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida 7500 dan ortiq delegat, jumladan, 100 ga yaqin davlatdan salkam 3000 xorijiy mehmon ishtirok etgani yangi O‘zbekistonga hurmat, o‘zaro ishonch va yaqin hamkorlikning chinakam ifodasi bo‘ldi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, investitsiyalar faqatgina iqtisodiy taraqqiyot emas, balki tinchlik va barqarorlikning ham kafolatidir.



Biz tanlagan yo‘l



► Davomi 3-betda



Islohot odimlari

INSON HUQUQLARI — OLY QADRIYAT

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarining markazida inson qadri, huquq va erkinliklarini ta’minlash g‘oyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish sohasidagi faoliyat bosqichma-bosqich yangi, yanada yuqori pog‘onalarga ko‘tarilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Hech kimning unutilishga haqqi yo‘q — qonun talablari va inson huquqlari — biz uchun oliy qadriyat”.

2030-yilgacha inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya: yangi loyiha tayyor, oldingi hujjat bajarildi

Yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”, deb e’lon qilingan 2025-yilning yarmi ortda qoldi. Ayni davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi

► Davomi 5-betda

doirasida hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida keng ko‘lamli yangilanishlar amalga oshirildi.

Xususan, joriy yilning birinchi yarmida Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan Milliy strategiyasi” loyihasi ishlab chiqildi. Yangi Milliy strategiya loyihasini takomillashtirish maqsadida o‘ndan ortiq tadbir — milliy va xalqaro darajadagi maslahatlashuvlar o‘tkazildi.



Munosabat

Avtomobil — insoniyatning eng buyuk ixtirolaridan biri. U bizga tezlik, qulaylik, erkin harakat va yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Bir paytlar oqilona boshqarganimizda u farovonlik va taraqqiyot ramzi edi. Ammo bugunchi? Bugun u tirbandliklar sabab vaqtimizni behuda sarflayotgan “temir qamal”ga ham aylanib qolmoqda.



Tirbandlik

Yirik shaharlardagi har kungi manzara: to‘xtab qolgan mashinalarning cheksiz qatori, uzun-yuluq signal tovushlari, haydovchilarning asabiy yuz ifodalari... Bu hol kuniga taxminan bir-ikki soatgacha cho‘zilishi mumkin. Bu esa haftada 14 soat, oyda 56 soat, yilda 672 soat, ya’ni deyarli 28 kun degani. Demak, tirbandliklar yiliga bir oylik umrimizni “yeb qo‘yishi” mumkin.

Prezidentimiz joriy yil 9-iyul kuni yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida poytaxtdagi tirbandlik masalasiga to‘xtalib, o‘zi ham shu muammoga duch kelgani, odamlar shu sabab uyiga juda kech qaytayotgani va bu kayfiyatiga ta’sir ko‘rsatayotgani haqida gapirdi.

► Davomi 4-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

SHONLI TARIX, BUYUK ZOTLARNING MUNOSIB VORISLARIMIZ



Shoqahhor SALIMOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a‘zosi

Boshlanishi 1-betda

Inson zoti yangi sharoitlar, ayniqsa, yaratilgan qulayliklarga tez ko‘nikadi, ammo yaqin o‘tmishni darrov esidan chiqaradi. Xorijiy valyutalar konvertatsiyasining yechimi, pensionerlarning Toshkent metropoliten xizmatidan bepul foydalanishi, ularning pensiyasini to‘liq olgan holda mehnat faoliyatini samarali davom ettirishi mumkinligi, tadbirkorlarga qulay bank xizmatlari yaratilgani... Eh-he, ko‘p yillar xalqimizni qiynab kelgan muammolar keyingi paytlarda uzil-kesil hal qilingani haqida o‘nlab misollar keltirish mumkin. O‘zbekistonda chorak asrdan ko‘p yashab, fuqarolik pasportini olmaganlar qancha edi? Qo‘shni mamlakatlardagi yaqin qarindoshlarining diydoriga yillar davomida mustaqil bo‘lganlar-chi?

Yuqorida tilga olingan qarorda ham aynan so‘nggi yillarda inson omiliga katta e‘tibor

qaratilayotganiga alohida urg‘u berilgan. “Aynan mustaqillik, barcha siyosiy-huquqiy kafolatlarni o‘zida mujassam etgan holda, “O‘zbekiston — 2030” strategiyamizni amalga oshirish, jamiyatimizda tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini kuchaytirish, inson qadri, huquq va manfaatlarini ta‘minlash, mintaqamizda yaxshi qo‘shnchilik aloqalarini yanada rivojlantirish, dunyo mamlakatlari bilan faol hamkorlik qilish, Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini yuksaltirishda beqiyos tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda”, deyilgan qarorda.

E‘tibor bersangiz, ushbu jumlada istiqlol davrida, ayniqsa, so‘nggi yillarda yangi O‘zbekistonning oldinga tashlagan mislsiz qadamlari, buyuk muzaffariyatlari tajassum topgan.

Bu zafarlar silsilasini barcha sohalarda ko‘rish mumkin. O‘zbekiston endilikda xorijliklar uchun ochiq mamlakat bo‘ldi, turizm salohiyati to‘liq ishga solinayotgan o‘lkaga aylandi. Xususan, Prezidentimizning joriy yil 15-maydagi “2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni soha uchun yangi davrni boshlab berdi. Bahor oylari tarqalgan rasmiy xabarda qayd etilishicha, O‘zbekistonda sayyohlik bo‘yicha rekord yangilanib, uch oyda 20 foiz o‘sgan, ya‘ni mamlakatimizga xorijdan uch milliondan ziyod sayyoh tashrif buyurgan. Xullas, turizm ham iqtisodiyotimizning yuksalib borayotgan sohasiga aylanmoqda.

Qadimiy shaharlarimiz, benazir tamaddunimiz, zamonaviy mehmonxonalar,



“

Ha, davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi va qat‘iy harakatlari tufayli biz ishonch bilan porloq kelajak uchun qadam tashlamoqdamiz. Odamlarimiz tafakkuri o‘zgardi. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda: “Biz endi kechagi odamlar emasmiz. Xalqimiz ham kechagi xalq emas. Tarixdan ma‘lum: vaqtni — imkoniyatga, imkoniyatni — yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq — buyuk xalqdir. Bugun mehnatkash, mard va olijanob, mehr-oqibatli elimiz ayni shunday xalq bo‘lib maydonga chiqmoqda”.

obod qishloqlar, boy va farovon bozorlarimiz xorijlik sayyoh va mehmonlarni hayratga solayotgani ham ayni haqiqat. Holbuki, bundan bir necha yil ilgari O‘zbekistonga notinch Afg‘oniston joylashgan mintaqaning bir bo‘lagi sifatida qaralardi. Bugun mamlakatimiz mintaqaviy barqarorlikning asosiy tayanchiga aylanganini dunyo ahli yaxshi biladi.

“Yurgan daryo, o‘tirgan bo‘yra” deydi dono xalqimiz. Yaqinda bir guruh do‘stlarimiz bilan Gruzuya va Turkiyaga sayohatga bordik.

Gruzuya o‘zining qadim tarixiy yodgorliklari, betakror tabiati, mandarinu apelsinlari, o‘ziga xos boshqa mahsulotlari bilan mashhur. Bir zamonlar “Kolxida” yuk avtomobillari, o‘ziga xos ta‘mga ega choylari kabi mahsulotlari bilan shuhrat qozongan mamlakat savdo do‘konlaridagi oziq-ovqat narxi biz bilan solishtirganda ancha baland. Masalan, bir kilogramm lahm mol go‘shiti 80 lari (1 dollar — 2,72 lari), plombr muzqaymog‘i 4,50 lari turadi. Import hisobiga o‘simlik yog‘i narxi ham bizning bozorlarimizga solishtirganda

MUSTAQILLIK – OTA-BOBOLAR ORZUSI, KELAJAK AVLODLAR IFTIXORI, MILLAT QALBIDAGI ULUG‘ TUYG‘U

Boshlanishi 1-betda

Ota-bobolarimiz asrlar davomida intilgan, kurashgan, kerak bo‘lsa, jonini fido qilgan bebaho ne‘matni xalqimiz ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab kelmoqda. Bu yo‘lda ne-ne sinovlarga duch kelganimiz ham bor gap. Xalqimiz oqillik, hamjihatlik bilan dovonlar oshib, dunyoda o‘z obro‘-e‘tiborini mustahkamlamoqda. Shu bois, mustaqillik bayrami biz uchun aziz va mukarramdird.

1991-yil 31-avgust. Bu biz uchun shunchaki raqam emas — sha‘n, g‘urur va hurlik timsolidir. Shu sanada xalqimiz asriy orzusi — Mustaqillikni qo‘lga kiritdi.

Bugun bir haqiqat barchaga ayon, O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, millionlab insonlarning sevimli Vatani. Yaxshi qo‘shni, halol va ishonchli hamkor, investitsion jozibador, tez rivojlanayotgan mamlakat.

Ozod va obod diyorumiz milliy istiqlolimizning o‘ttiz to‘rt yillik shonli sanasini qarshi olmoqda. Ushbu bayramni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot darajasi, jahon maydonidagi obro‘-e‘tiboriga munosib tarzda, yuksak saviyada nishonlash maqsadida Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz

to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

— Bugun hech ikkilanmasdan aytishimiz mumkinki, dunyo tahlikali. Unda kechayotgan jarayonlarni ko‘rib, mustaqilligimizni asrash, uning qadriga yetish har qachongidan ham mashaqqatli bo‘lib borayotganini his qilyapmiz, — deydi Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi rahbari Otabek Hasanov. — Oxirgi sakkiz yilda yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni kuzatar ekanmiz, barcha sohalarda tub o‘zgarishlarning guvohi bo‘lamiz. Jumladan, 8 yil oldin boshlangan keng ko‘lamli islohotlar tufayli jamiyatimizning ijtimoiy-

siyosiy manzarasi butunlay o‘zgarib bormoqda. Qisqa muddatda mamlakatimiz iqtisodiyoti shiddat bilan o‘tib, yalpi ichki mahsulot hajmi tarixda birinchi marta 110 milliard AQSH dollaridan oshdi, “yashil” va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish, muqobil energiya manbalarini yaratish bo‘yicha ulkan dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda.

2017-yilda maktabgacha ta‘lim qamrovi 27 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bugun 77 foiz, oliy ta‘limga qamrov esa 49 foizga yetdi.

Tan olish kerak, oldin mustaqillik haqida bayram arafasida gapirar edik. Bugun yil bo‘yi — 365 kun so‘z yuritaypmiz. Sababi, istiqlol millati, dini, e‘tiqodidan qat‘i nazar barchani birlashtiradigan bayram. Zero, inson

Bu yilgi bayram tantanalari “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etishida ham katta ma‘no-mazmun bor. Qarorga muvofiq, ushbu bayramni munosib nishonlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri boshchiligidagi respublika komissiyasi tuzildi va uning tarkibi tasdiqlandi.

“

Bayram arafasida joylarda mustaqillikning yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta‘minlash borasidagi ahamiyatiga bag‘ishlangan ma‘naviy-ma‘rifiy anjumanlar, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, umumxalq sayillari, madaniyat va sport tadbirlari tashkil etiladi.

— Tantanali tadbirlarda adabiyotimiz, san‘atimizning barcha yo‘nalishlari qatori kino sohasi vakillari ham munosib ishtirok etadi, — deydi Kinematografiya agentligi direktori vazifasini bajaruvchi Shuhrat Rizayev. — Biz oxirgi yillarda zamon talabiga javob beradigan o‘nlab badiiy, hujjatli, animatsion filmlar yaratdik. Shu kungacha sohada tanlovlar e‘lon qilsak, bor yog‘i 40-50 kishi da‘vogarlik qilardi. Bu yil esa ularning soni 400 nafarga yetdi. Ana shu tanlovlar natijasi o‘laroq, 50 dan ortiq loyiha tanlab olindi. Quvonarlisi, bularning barchasi mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni o‘zida mujassam etgan senariylardir. Masalan, ijtimoiy himoya, sport, ta‘lim, tadbirkorlik, investitsiya, “yashil iqtisodiyot” kabi o‘nlab masalalar bu filmlarimizning mavzusiga aylanyapti.

O‘zbekiston tobora inson qadri, uning huquq va manfaatlari ulug‘lanadigan ijtimoiy davlatga aylanib borayotgani, kambag‘allikni qisqartirish, yordamga muhtoj toifalarni ko‘llab-quvvatlash, bandlikni ta‘minlash, zamonaviy ish o‘rinlarini ko‘paytirish bo‘yicha davlat dasturlari katta ijobiy natijalar berayotganini har birimiz hayotimiz misolida ko‘rib, his etib turibmiz. Xalqimiz



tafakkuridagi o‘zgarishlar, yangilanish jarayonlari tashkil etilajak bayram dasturlarida o‘z ifodasini topadi.

Ha, mustaqillik bizga o‘z kuchiga, bilimiga tayanishni, katta marralarni ko‘zlab harakat qilishni, hamjihatlikda buyuk ishlarni amalga oshirishni o‘rgatdi. Islohotlar inson uchun degan da‘vat siyosatning o‘zalgacha aylandi. Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, axborot texnologiyalari, sport sohalarda shu vaqtga qadar qayd etilmagan natijalarga erishilmoqda.

Birgina Parij Olimpiadasida va Paralimpiadasida sportchilarimiz ilk bor kuchli o‘n beshtalikdan joy olgani, futbol bo‘yicha milliy terma jamoamiz O‘zbekiston tarixida birinchi marta jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritgani ayni fikrlarimiz isbotidir.

Shu bois, bayram bilan bog‘liq tashkiliy jarayonlarda o‘g‘il-qizlarimiz turli sohalardagi yutuqlari, shahar va qishloqlarimiz jadal sur‘atlar bilan obod bo‘lib borayotgani, ko‘p millatli va konfessiyali jamiyatimizdagi tinchlik, o‘zaro do‘stlik va hamjihatlik, Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish borasidagi islohotlar yorqin misollar bilan aks ettiriladi.

Ijodkor uchun millat yuksalayotgani, xalqning orzu-umidlari ushlayotganini ko‘rish, uni tarannum etish katta baxt aslida. Ijod ahli uchun eng aziz mavzu — Vatan, eng aziz so‘z — erk va Mustaqillik! Bu

ijtimoiy muammolar, qo‘shnilar bilan sovuq munosabatlarni ham eslash joiz.

Ammo Allohning inoyati bilan 2017-yildan vaziyat butkul o‘zgara boshladi. Xalq bilan muloqot tamoyili hayotga tatbiq etildi. Yangi O‘zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi qabul qilindi. Jamiyatda yangilanishlar izchillik bilan davom etdi. Iqtisodiy islohotlar samarasini bugun o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib turibmiz.

“O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorda qisqa muddatda mamlakatimiz iqtisodiyoti shiddat bilan o‘tib, yalpi ichki mahsulotimiz hajmi tarixda birinchi marta 110 milliard AQSH dollaridan oshgani, “yashil” va innovasion iqtisodiyotga o‘tish, muqobil energiya manbalarini yaratish bo‘yicha ulkan dastur va loyihalar amalga oshirilayotgani alohida qayd etilgan.

Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston — investitsiyalar uchun katta imkoniyatlar mamlakati” tamoyilini ilgari surdi. Natijada YIM sakkiz yilda 2 barobar o‘tdi. 2024-yilda investitsiya hajmi 35 milliard dollarga yetdi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi xalqimizning yangi marralarni zabt etishga undamoqda.

Ha, davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi va qat‘iy harakatlari tufayli biz ishonch bilan porloq kelajak uchun qadam tashlamoqdamiz. Odamlarimiz tafakkuri o‘zgardi. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda: “Biz endi kechagi odamlar emasmiz. Xalqimiz ham kechagi xalq emas. Tarixdan ma‘lum: vaqtni — imkoniyatga, imkoniyatni — yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq — buyuk xalqdir. Bugun mehnatkash, mard va olijanob, mehr-oqibatli elimiz ayni shunday xalq bo‘lib maydonga chiqmoqda”.

Biz shonli tarix, buyuk zotlarning munosib vorislarimiz, mustaqil xalqaro subyek sifatida jahon maydonida o‘zimizning mavqeimiz, ovozimiz bor!



Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



66

Bu yil investitsiya loyihalari hisobiga 290 ming, doimiy ishga joylashtirish va tadbirkorlikka jalb etish orqali 3,6 million, qishloq xo‘jaligida 1,2 million, qurilishda 169 ming ish o‘rni ochish ko‘zda tutilgan. Joriy yilning yanvar-aprel oylarida 1,5 milliondan ziyod odamning bandligiga ko‘maklashish belgilangan edi. Mazkur reja amalda 115 foiz bajarilib, 1 million 770,4 ming kishi daromadli mehnat bilan band qilindi.



2025-yil 17-iyul, 145-son

ISHSIZLARGA HUNAR O‘RGATISH RIZQ YO‘LINI OCHISH DEMAKDIR



Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bu imkoniyatlar, o‘z navbatida, ishsizlikni kamaytirish, aholi daromadini ko‘paytirish, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya sohasidagi dolzarb masalalarni samarali hal etishda katta imkoniyat bo‘ladi. Shu bois, ushbu kunlarda ro‘y bergan yangilik va o‘zgarishlarni farovon hayotimizni ta‘minlaydigan muhim hafta sifatida alohida e‘tirof etish maqsadga muvofiq.

Darvoqe, ishsizlik muammosini bejiz tilga olmadi. Bu muammo yaqin-yaqin gacha xalqimizning hayoti sifatiga og‘ir ta‘sir ko‘rsatar, maktabni bitirib katta hayotga kirib kelgan minglab yoshlar o‘ziga munosib ish topolmay sarson bo‘lardi. Ishsizlik faqat maktab bitiruvchilarini emas, oliy ta‘limni tugatgan yoshlarning ham jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga to‘siq edi. Shu tufayli qo‘lida oliy ma‘lumot to‘g‘risida diplom bo‘lsa-da, yurtdan ish topa olmagan ko‘plab mutaxassislar va ishsiz yoshlar xorijga borib qurilish, xizmat ko‘rsatish singari ishlarda ishlashga majbur edi.

Davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatiga kirishgan ilk yillardayoq bunday dolzarb muammolarga alohida e‘tibor qaratib, xalqimiz olis kelajakda emas, bugun baxti yashashga haqli ekanini, buning uchun ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy masalalar qatorida bandlik sohasida yangicha yondashuvlarni joriy etish lozimligini ta‘kidlagandi. Bu boradagi tashabbuslar faqat hujjatlarda emas, hayotda ham samara berishi uchun aniq tizim yaratilib, shu asosda ish yuritilyapti.

Xususan, aholi bandligi va daromadini oshirishga har tomonlama ko‘maklashish, ishsizlar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilarni ish bilan ta‘minlash bo‘yicha yangi ta‘sirchan mexanizmlarni joriy etish hamda ehtiyojmand aholining mehnat faoliyatiga keng jalb qilish bo‘yicha ishlar yangicha yondashuvlar asosida tashkil etilyapti. Bu jabhadagi yumushlarni tizimli bajarish bo‘yicha ijtimoiy daftarlari yuritish, mahallabay ishlash yo‘lga qo‘yildi.

Mahallalarda hokim yordamchisi, mahalla bankiri lavozimi ta‘sis etildi. Ishsizlar va kambag‘al oilalarni ko‘llab-quvvatlash, ishli qilish, tadbirkorlikka jalb etish maqsadida subsidiya va imtiyozli kreditlar ajratilyapti. Natijada O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholi o‘rtasida ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,5 foizdan 2025-yilning birinchi choragida 5,4 foizga tushdi.

Bu yutuqlar har birimizning hayotimizda natijasini namoyon etmoqda. Yoshlarimiz o‘z yurtida, oilasi bag‘rida yashab yuqori maoshli ish topmoqda. Ishsizlarga ijtimoiy daftarlari



orqali ko‘mak berilib, bandligi ta‘minlanyapti, tadbirkorlar safi kengaymoqda. Ular yaxshi daromad topishi barobarida bir qancha ish o‘rni ham ochyapti.

Ana shunday yutuqlar tufayli O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rni yuksalib borayotgani barchamizni quvontiradi. Yaqinda yana bir xushxabar tarqaldi: Global Soft Power Index 2025 reytingida O‘zbekiston dunyoda mamlakat brendi eng tez o‘sayotgan yetakchi 3 ta davlat qatoridan joy oldi. Bu mamlakatimizda inson qadrini ko‘zlab amalga oshirilayotgan ezgu islohotlarning muhim natijasidir.

Ushbu islohotlar izchilligini ta‘minlash doimiy e‘tibordir. Shu maqsadda yurtimizda 2030-yilgacha ishsizlikni xalqaro e‘tirof etilgan daraja — 5-6 foizdan oshirmaslik bo‘yicha dolzarb vazifalar belgilanib, shu asosda ish yuritilyapti. Bugungi geosiyosiy o‘zgarishlar, o‘zaro ishonch inqirozi ro‘y berayotgan murakkab davrda bunday maqsad va rejalarni ro‘yobga chiqarish oson emas. Ammo inson qadri barcha nasardan ustun qo‘yilgan yangi O‘zbekistonda bu borada qat‘iy siyosiy iroda shakllangani va amaliy ishlar izchil yo‘lga qo‘yilgani o‘z samarasini berayotir.

Xususan, bugun bu yo‘nalishda har bir mahalla bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan. Aholi bandligini ta‘minlashga qaratilgan “Mahalla loyihasi” dasturi doi-

ta‘minlash maqsadida vazirlik tomonidan “yangiish.mehnat.uz” elektron dasturi ishga tushirildi.

Bu yil investitsiya loyihalari hisobiga 290 ming, doimiy ishga joylashtirish va tadbirkorlikka jalb etish orqali 3,6 million, qishloq xo‘jaligida 1,2 million, qurilishda 169 ming ish o‘rni ochish ko‘zda tutilgan. Joriy yilning yanvar-aprel oylarida 1,5 milliondan ziyod odamning bandligiga ko‘maklashish belgilangan edi. Mazkur reja amalda 115 foiz bajarilib,

1 million 770,4 ming kishi daromadli mehnat bilan band qilindi.

Tabiiyki, bu natijalarga o‘z-o‘zidan erishilgani yo‘q. Hududlarda aholi bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka jalb qilish va daromadini oshirish bo‘yicha yangicha yondashuvlar keng joriy qilinayotgani, mahallalarda ehtiyojmand aholi qatlami bilan manzilli ishlash hamda ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, mavjud resurslar, imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali yuqori daromadli ish o‘rinlari ochilayotgani bu borada muhim omil bo‘lmoqda.

Tomorqa — tomning orqasi emas, xazina



rasida ajratiladigan 1 milliard dollar kredit resurslari banklar va hududlar kesimida taqsimlandi. Loyiha ishlab chiqish, kredit ajratish, aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha tuman banki rahbariga oyma-oy samaradorlik ko‘rsatkichi qo‘yildi. Umuman olganda, 2025-yil bandlikni ta‘minlash va kambag‘allikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yil bo‘lishi belgilanib, shu maqsadda katta-katta loyihalar hayotga tatbiq etilyapti. Xususan, bu yil 5 million 200 ming kishini ishli qilib, 1,5 million odamni kambag‘allikdan chiqarish, 42 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etib, eksporti 30 milliard dollardan oshirish rejalashtirilgan.

Bu yo‘nalishda joriy yilning o‘tgan davrida qanday natijalarga erishildi degan savol tug‘ilishi tabiiy. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma‘lumotiga ko‘ra, Prezidentimizning shu yil 17-yanvardagi “2025-yilda aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, davstavval aholini daromadli mehnat bilan ta‘minlash dasturi tasdiqlanib, shu yo‘nalishda tizimli ishlar qilinayapti. Ochiqladigan ish o‘rinlarining hisobini yuritish hamda haqqoniyligini

Yangicha yondashuvlar haqida bejiz to‘xtalmadik. So‘nggi yillarda tomoqorqachilik yo‘nalishidagi o‘zgarishlarni bunga misol qilib keltirsaq bo‘ladi. Chunki aholining salmoqli qismi qishloqlarda yashagani bois, tomoqorqali xonadonlar achagaina. Aniq raqamlar misolida aytsek, 5 milliondan ziyod xonadonda 508 ming gektar tomoqora bor. Bu aholining iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun katta imkoniyat. Ammo tomoqorqadan unumli foydalanish uchun sharoit ham kerak.

Avvalo, hududlar sharoitiga mos ekin turi va urug‘likni tanlash, qolaversa, ekinga islov berish, sug‘orish uchun qulay imkoniyat bo‘lishi lozim. Aks holda, yerga qadalgan nihol ayni pishiqchilik davrida suvsizlik yoki qarovsizlik tufayli nobud bo‘lishi mumkin. Qishloq joyda tug‘ilib voyaga yetganini bois, bu manzara menga begona emas. Xonadonimizdagi kattagina tomoqorda yetishtirilgan hosil suvsizlik ta‘sirida ayni pishiqchilik davrida nobud bo‘lganiga bir necha bor guvoh bo‘lganman. Tabiiyki, bu holat odamlarning qo‘lini mehnatdan sovitiq bo‘yadi.

Prezidentimiz o‘tgan yili sentyabrda kambag‘allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat



bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo‘yicha bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida shu jihatlarni nazarda tutib, “Odamlarga qancha yordam bermaylik, mahallalar sharoitini yaxshilamasak, kambag‘allik qisqarmaydi”, degan edi. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida bu masalalarga ham alohida e‘tibor qaratilib, mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan, sharoiti eng og‘ir mahallalarda suv nasoslari va quyosh panellari o‘rnatish, elektr, yo‘l, internet va boshqa infratuzilma masalalarini hal etish vazifalari belgilangan edi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma‘lumotiga ko‘ra, bu vazifalar ijrosi bo‘yicha muayyan ishlar bajarilyapti. Jumladan, og‘ir ahvoldagi 1024 ta mahallaga respublika darajasidagi 247 rahbar va o‘rinbosarlari birtiktirilgan. Ular hududlardagi qariyb 5000 ta muammoni aniqlagan. Bugunga qadar masalalarning asosiy qismi ijboliy hal etildi. Qolgan 200 ga yaqinining ijrosi bosqichma-bosqich ta‘minlanmoqda.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida og‘ir toifali mahallalarda tomoqorqani suv bilan ta‘minlash, aholiga elektr energiyasini barqaror yetkazib berish, internet sifatini oshirish va ichki yo‘llarni ta‘mirlash uchun

qilish uchun 924,4 milliard so‘m zarurligi aniqlandi. Dastlabki bosqichda 344 ta obyektga 1490 kilometr elektr tarmog‘i tortish, 540 ta transformator o‘rnatish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish hamda qurilish-ta‘mirlash ishlari bajarilmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 4-oktabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish



va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, og‘ir ahvoldagi mahallalar bilan uch tomonlama (tuman hokimligi, mahalla fuqarolar yig‘ini va tuman bandlik bo‘limi) shartnoma imzolandi. Unga ko‘ra, xonadon va ko‘chalarda mevali va manzarali daraxtlar, gul ko‘chatlari ekish, devorlarni oqlash, ariq va qabristonlarni tozalash, tomoqorda ekin ekish, quyosh yurish va boshqa foydali tadbirlar bo‘yicha targ‘ibot o‘tkazish belgilangan.

Tomoqra va dehqon xo‘jaliklari yeridan samarali foydalanish, sohaga zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish, mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda yuqori daromadli va eksportbop mahsulotlar yetishtirishni qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar izchil davom etyapti. Bu borada faol ishlayotgan ustav dehqonlar, tajribali tomoqor egalari doimiy qo‘llab-quvvatlanyapti. O‘tgan 7-yilda tomoqora egalari va dehqon xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash uchun 2,3 trillion so‘m imtiyozli kredit va 265 milliard so‘mlik subsidiya berilgani buning isboti.

— Tomoqorqachilik mahallamizning iqtisodiy o‘sinh nuqtalaridan, — deydi Zangota tumanining Qirguzar mahallasidagi hokim yordamchisi Asiya Kudaybergeneva. — 448 ta xonadonning barchasida tomoqora bor. Shu bois, aholi tomoqorasidan unumli foydalanish uchun zarur sharoit yaratish doimiy e‘tiborimizda. An‘anaviy ekinlar qatorida yangi, sermahsul, yaxshi daromad keltiradigan ekin ekishni tashkil etish bo‘yicha tashkiliy va targ‘ibot ishlarini olib bordik. Natijada limonchilik yo‘lga qo‘yilib, manzarali daraxtlar ekildi, yaxshi daromad olish bo‘yicha ilg‘or tajriba shakllanmoqda. Tajribamizni ommalashtirishga ham e‘tibor qaratyapmiz. Shu kunlarda Namangan viloyatining qator sharoiti og‘ir mahallalarda ishlarni yo‘lga qo‘yishga o‘z tajribam, amaliy ko‘magim bilan hissa qo‘shayotganidaman mamnunman. Ushbu chora-tadbirlar odamlarni

ishli qilish, turmush sharoitini yaxshilash, eng muhimi, yurtimizning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda yangi istiqbollarni ochadi.

Bu xayrli ishlar davom ettirilib, dehqon xo‘jaliklari va tomoqorqani rivojlantirish bo‘yicha alohida kengash tuzildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti rivojlangan tumanlarda tomoqra va ijara yerlardan samarali foydalanish bo‘yicha ijboliy tajribani bosqichma-bosqich boshqa tumanlarga tatbiq etish orqali hududlarda yangi “o‘sinh nuqtalari”ni yaratish maqsadida “Uzagrostar xolding” kompaniyasi tashkil etildi. Shu bilan bir qatorda, dehqon xo‘jaliklari va tomoqora egalari qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilayotir. Bular ishsizlik muammosini samarali hal etish barobarida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, eng muhimi, aholining tadbirkorlik ko‘nikmasini rivojlantirishda muhim qadam bo‘lmoqda.

Hunar — oqar buloq

Ishsizlikni bartaraf etishda qo‘llanayotgan yangicha yondashuvlardan yana biri ishsiz aholini mehnat bozorida talab yuqori kasb-hunarlariga o‘qitishdir. Bugun Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida 65 ta Kasbiy ko‘nikmalar markazi bor. Ularda ishsizlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan 70 dan ziyod soha bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan.

Joriy yil 1-iyunga qadar 77 ming 900 kishi ushbu markazlarda o‘qishga jalb qilindi. Bundan tashqari, bir qancha nodavlat va professional ta‘lim tashkilotlarida ham ish qidirayotganlarga kasb-hunar o‘rgatish bo‘yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etilgan. Ustoz-shogird an‘anasi bo‘yicha yaratilgan tizim ham bu borada samara beryapti.

Kasb-hunarga o‘qitishda vaucher tizimi yo‘lga qo‘yilgani aholi uchun katta qulaylik bo‘lmoqda. Bunda ishsizlar o‘zi tanlagan kasb bo‘yicha o‘quv muassasasini erkin tanlash imkoniga ega. Bu esa sohada raqobat muhitini kuchaytirib, ta‘lim sifatini oshirishga zamin yaratmoqda. O‘quv jarayonining 30 foizi nazariy, 70 foizi amaliyot bilan bog‘liq holda tashkil etilyapti. Bu borada Kasbiy ko‘nikmalar markazlari va ish beruvchilar o‘rtasida yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Jumladan, joriy yil 1-iyun holatiga ko‘ra, 11 ming fuqarolar ish beruvchining buyurtmasi asosida o‘qishga jalb qilingan. Hozir ulardan 7000 nafari o‘qishni tugatib, ishli bo‘lgan. Kasb-hunar markazlarida o‘qiyotganlarning aksariyati ayol-qizlar. Opa-singillarimiz tikuvchilik, hisobchilik, axborot texnologiyalari mutaxassisligi kabi sohalarga katta qiziqish bildiriyapti.

O‘z navbatida, bandlik xizmati axborot tizimida kasb-hunarga o‘qiyotgan aholining ish bilan ta‘minlanish holati doimiy monitoring qilib boriladi. Ushbu tizim ma‘lumotiga ko‘ra, joriy yil 1-iyunga qadar o‘quv kurslarida hunar o‘rganganlarning 26 mingdan ortig‘i doimiy ishga joylashgan, 6000 ga yaqini o‘zini o‘zi band qilgan, 300 dan ziyodi yakka tartibda tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan.

Bundan ayon bo‘ladiki, kasb-hunar markazlarida o‘qiyotgan har bir inson o‘quv kursini tugatgach, ishli bo‘lmoqda yoki tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqda. Bu tizimning o‘ziga xos samalararini namoyon etadi. Zero, tafakkuri teran ajdodlarimiz qayd etganidek, hunar — oqar buloq. Qo‘lida biror kasbi yoki hunari bor odam hech qachon ishsiz qolmaydi. Shu ma‘noda, ishsizlarga hunar o‘rgatish ularga rizq yo‘lini ochish demakdir.

Bu lavhalar bandlik sohasida yuritilayotgan davlat siyosatining muayyan qismi. Aslida, bu jabhadagi ishlarning qamrovi ancha keng, ahamiyat cheksiz. Ushbu islohotlarning natijasiga bugun aholining hayoti sifati yaxshilanayotgani, daromadli oshayotgani, dunyoqarashi va hayotga intilishi kuchayib borayotgani misolida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida bu ezgu ishlar davomiyligini ta‘minlash borasida qator chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish orqali ishsizlarni doimiy ish o‘rinlariga ishga joylashtirishga ko‘maklashish, band bo‘lmagan shaxslar va kambag‘al oilalarning ishsiz a‘zolarini kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish orqali ish bilan ta‘minlash, xalqaro standartlar asosida Kasbiy ko‘nikmalar markazlari o‘qituvchilarining malakasini oshirish, kasb-hunarga o‘qitish jarayonlarida xususiy sektor ulushini oshirish shular jumlasidan.

Ayni paytda bu yo‘nalishda hayotga tatbiq etilayotgan muhim loyihalar yurtimizning iqtisodiy qudratini yuksaltirib, aholi farovonligini oshirish, xalqimizning bugunidan mamnun, ertangi kunga yuksak ishonch bilan yashashiga zamin yaratadi.



TEZLIK EMAS, QONUN USTUVOR BO'LSIN

Boshlanishi 1-betda

Mas'ullarga bu muammoni hal qilish topshirig'ini berib, keyingi masala — kundan kunga qurbonlari soni oshib borayotgan yo'l-transport hodisalariga ham alohida e'tibor qaratdi.

O'tgan yili 9364 ta yo'l-transport hodisasi sodir etilgan. Ularda qariyb 9 ming fuqaro jarohat olgan. Avariylar tufayli 2203 odam halok bo'lgan. Eng ko'p o'lim holatlari Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida. Joriy yilning olti oyida 20 ta hududda avariylar soni yuqorilgicha qolmoqda. Afsuski, har to'rtinchi avariya 1 kishi yoki kuniga o'rta 6 kishi vafot etyapti.

Albatta, bu fojialar ortida ko'pincha insonning o'zi, aniqrog'i, mas'uliyatsiz haydovchilar turibdi. Belgilangan tezlikni oshirish, masofani saqlamaslik, yo'lda telefonidan foydalanish, charchoq holda rulga o'tirish va hatto mast holda haydash — bularning barchasi faqat haydovchi uchun emas, balki atrofidagi yuzlab odamlar uchun ham xavf manbai. Aslida, yo'l — javobgarlik maydoni. Avtomobil chambargini ushlab faqat mashinani emas, balki o'zi va boshqalarning taqdirini vaqtincha “qo'lga olish” degani. Ammo ayrim “uchar” haydovchilarning “Menga hech narsa bo'lmaydi”, degan befarqligi, “Tezroq yetib olishim kerak”, degan shoshma-shosharlighi oqibatida yuqoridagi kabi qo'rqinchli raqamlar ortib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda haydovchi kim bo'lishidan qat'i nazar, tasma taqib, keyin harakatlanadi. Mashina boshqarishda qoidalariga e'tibor beradi. Bizda esa shu tasmani taqqan yo' qoidaga rioya qilgan talaygan-u, oldidagini quvib o'tib tez haydagan, svetofordan o'tib ketishga ulgurgan uddaburon degan teskari tushuncha bor, harqalay ko'pchilikda shu dunyoqarash. Taassufki, bugun katta yo'llarda ham shundaylar kam emas. Qoidaga rioya etib, belgilangan tezlikda sekin harakatlanib ko'ring-chi, yondan siqib, quvib o'tib,



kamiga ishorali tanbeh ham berib ketadi. Ba'zan to'rt tasmasi yo'lda ham chetda piyodalar harakatlanyaptimi, biror mashina to'xtab turibdimi yoki ko'priks ustida harakatlanyapsizmi, farqi yo'q, ular chiroqlarini yoqib-o'chirib, “Yo'l ber!” deb tahdid qilgani qilgan. Haydovchilarda, ayniqsa, uzoq masofaga qatnovchilarda bir yomon odat borki, mashina harakatlandi deguncha go'yoki “vaqtni o'ldirish” uchun ermakka telefonni qo'lga oladi, bu ularni ruldan chalg'itmay qolmaydi, ba'zan beton to'siqqa qarab ketib qolish, ular uchun oddiy holdir, lekin yonidagi yo'lovchining yuragini taka-puka qilishi aniq. Ba'zi yosh haydovchilar esa o'ta ta'sirchan. Rulga o'tirdimi, musiqani baland yoqib, o'shaning ta'siriga tushadi, mashina boshqaruvi ham o'sha ritmga moslashadi, yo'ldagi chuqurlarni “terish” ilinjida qarama-qarshi yo'nalishda ham harakatlanaveradi. Qarshisida mashina ko'rinsa, chetga qochishga unchalik shoshilmaydi. Afsuski, biror hodisa yuz bersa, eng avvalo, jabrdiyda yo'lovchi bo'lib qoladi. Aksariyat hollarda haydovchi yo'l-transport hodisasi vaqtida himoyalani b qoladi. Aksar hodisalar buni tasdiqlaydi. Yo'ldagi ba'zi haydovchilarga xos oliftagarchilik, hovliqish, kibr ortidan

keluvchi falokat jabrini oddiy yo'lovchi tortadi. Biror hodisa yuz bermagan taqdirda ham yuqori tezlik, ba'zi qo'rqinchli holatlar oqibatidagi stress yomon kasalliklarga olib kelmaydi, deysizmi? Trassada aksariyat qoidabuzarlar yuqori tezlikda harakatlanadi. Qayerda radar bor, ko'chmalari qayerga o'rnatilgan, hammasidan xabardor bo'lib turadi. Ularda o'zaro tizimli aloqa mavjud.

“Jarimani to'ladim, demak, xohlaganimni qilaman” tushunchasiga chek qo'yiladi

Videoselektorda yana bir muhim masala — ijtimoiy tarmoqlarda aholi, hatto taniqli shaxslar o'rtasida “jarimani to'lab qo'ydim-ku, xohlaganimdek yuraveraman”, deyish avj olgani tanqid qilindi.

Ma'lumotlarga ko'ra, sodir bo'layotgan yo'l-transport hodisalarining 34 foizidan ortig'i transport vositalarini ruxsat etilgandan yuqori tezlikda boshqarish natijasidir. Harakat tezligi oshishi bilan transport vositasining vaqt birligida bosib o'tadigan yo'li uzayib boradi, shuning bilan birga, vujudga kelgan xavfning oldini olish uchun haydovchining imkoniyatidagi vaqt kamayadi. O'zi shundoq ham keyingi paytlarda tezlik bilan bog'liq vaziyatda sodir bo'layotgan avtohalokalar statistikasi oshib bormoqda. Afsuski, bu kabi yuqori tezlik ortidagi qurbonlarning aksariyati bolalar bo'lmoqda.

“O'tgan yili 9364 ta yo'l-transport hodisasi sodir etilgan. Ularda qariyb 9 ming fuqaro jarohat olgan. Avariylar tufayli 2203 odam halok bo'lgan. Eng ko'p o'lim holatlari Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida. Joriy yilning olti oyida 20 ta hududda avariylar soni yuqorilgicha qolmoqda. Afsuski, har to'rtinchi avariya 1 kishi yoki kuniga o'rta 6 kishi vafot etyapti.

Jazo emas, bilim orqali

Haydovchining harakati bu o'sha shaxsning madaniyatini ko'rsatadigan indikatoridir. Ba'zilar qoidalarini buzishni “erkinlik”, “mardlik” yoki hatto “mahorat” deb biladi. Aslida, bu kabi qarashlar inson hayotini tahdidga soluvchi eng xatari illatlardir. Haydovchilik madaniyati qonun qabul qilish yo'jazo vositasida emas, balki bilim orqali shakllantirilsa, yanada barqaror va samarali bo'ladi.

Shu masalada videoselektorda Prezidentimiz keyingi yillarda haydovchilarni tayyorlash bo'yicha yangi tizim samara berishni boshlaganini ta'kidlab, lekin piyodalar, ayniqsa, yoshlarning madaniyati va yo'l harakati qoidalari haqidagi bilimlarini oshirish dolzarb masala ekanini ta'kidladi. Shu o'rinda mas'ul vazirlarlarga yangi o'quv yiliga maktab va bog'chalarda harakat xavfsizligi bo'yicha dasturlarni tubdan yangilash topshirildi. Maktab o'quvchilari va mahalladagi yoshlar o'rtasida “Yashil chiroq” musobaqalari qayta tiklanib, respublika g'oliblariga Prezident sovg'asi berilishi ma'lum qilindi.

Albatta, yo'ldagi har bir harakat faqat qoidalariga emas, avvalo, tarbiya va madaniyatga ham bog'liq. Shu bois, yo'l harakati madaniyatini shakllantirishni maktabdan boshlash kelajakdagi halokatlarning oldini olish demakdir. Chunki insonning hayotga, qoidalariga, jamiyatga munosabati aynan maktabda shakllanadi. Bolalarga yo'l belgilari, piyodalar va haydovchilar huquqlari, xavfsizlik qoidalari haqida mulohazali darslar o'tilsa, ular bu bilimni hayot tarziga aylantiradi. Qoidalar asosida shakllangan ong va mas'uliyat vujudga keladi. Shu asnoda aytadiganimiz: shoshilmang, manzilingiz yaqin, umr yo'lingiz uzoq bo'lsin.

Shuhrat NORMURODOV, jurnalist

Bugunning gapi

XIZMATLAR SOHASI

ZAMONAVIY IQTISODIYOTNING TAYANCH NUQTASIGA AYLANMOQDA



Bekzod SHUKUROV, Iqtisodiyot va moliya vazirligi boshqarma boshlig'i

Boshlanishi 1-betda

Endi ular nafaqat mahsulotlar, balki xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan ham keng foydalanmoqda. Natijada keyingi yillarda yurtimizda xizmatlar sohasi sezilarli rivojlanib, milliy iqtisodiyotimizning muhim va daromadli yo'nalishlaridan biriga aylandi. Joriy yilning birinchi yarim yilligi bo'yicha e'lon qilingan dastlabki makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisob-kitobi ham shuni ko'rsatyapti. Unga ko'ra, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 6,8 foiz o'sib, barqaror ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsa, bunda xizmatlar sohasining ham ulushi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Xususan, bu yo'nalishdagi eksport ko'rsatkichlari 3,2 milliard dollarga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 barobarga yuqoriladi. Turizm xizmatlari o'tgan yilga nisbatan qariyb 1,5 baravar, Ay-Ti xizmatlari eksporti 2 baravarga oshgani ham bozor xizmatlari o'sishida katta hissa qo'shmoqda.

Gap shundaki, aholi ehtiyojlari va turmush tarzi o'zgarгани sari, zamonaviy va raqobatbardosh xizmatlarga bo'lgan talab oshib boradi. Shu jihatdan, bugungi global iqtisodiy rivojlanish sharoitida xizmatlar sohasi dunyo iqtisodiyotining eng muhim drayveriga aylanmoqda. Bu tarmoq nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va hududiy rivojlanishga xizmat qiladi. “World Economic Forum” asoschisi Klaus Shvab xizmatlar sohasiga “Bu shunchaki iqtisodiy faollik emas, balki inson ehtiyojlari va hayot sifatiga berilgan amaliy javobdir”, deya ta'rif bergani bejiz emas.

O'zbekistonda bu yo'nalish keyingi sakkiz yilda keskin rivojlangani ko'zga tashlanadi. Mazkur sohaga katta e'tibor qaratilib, turizm, Ay-Ti, transport, savdo, ta'lim, tibbiyot va maishiy xizmatlar yo'nalishida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qo'llab-quvvatlanishi ortidan tarmoqda yangi biznes egalari paydo bo'lyapti. Turizm va transport sohalari yirik loyihalar ishga tushirilayotgani, iqtisodiyotimizning barcha jabhalarida raqamli xizmatlarning rivojlanayotgani, shuningdek, malakali va yuqori daromadli kadrlar tayyorlash tizimi takomillashib borayotgani ham bevosita xizmatlar yo'nalishining iqtisodiyotdagi ulushi yil sayin ortishiga turki bo'lyapti.

Shu yilning 27-fevral kuni qabul qilingan Prezidentimizning tegishli qarori bilan xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish choralari belgilab olindi.

Bugungi kunda har bir hudud salohiyatidan kelib chiqib yangi drayver loyihalar, tadbirkorlar uchun qulayliklar, xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsion xizmat turlarini joriy etish va ularda xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.



Boisi, xizmatlar sohasi aholi daromadlarini oshirish va bandlegini ta'minlashda katta tarmoqlardan biri sanaladi. Masalan, joriy yilning o'tgan davri mobaynida savdo va xizmat ko'rsatish sohasida yurtimiz bo'ylab jami 823,2 ming nafar aholi bandlegi ta'minlangani buning isboti. Birgina Mirobod tumanidagi Taras Shevchenko ko'chasining 200 metr qismi aholi va sayyohlar uchun qulay bo'lgan tunu kun faoliyat yurituvchi savdo, turizm va gastronomik ko'chaga aylantirilishi ortidan 120 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi. Keyingi vaqtlarda poytaxtda bunday ko'chalar soni ortib boryapti.

Jumladan, Toshkent shahar tumanlarining 26 ta ko'chasini tunu kun faoliyat yurituvchi savdo, turizm va gastronomik ko'chaga aylantirish belgilangan bo'lib, ular shu yilning 1-sentyabriga qadar to'liq ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Mazkur ko'chalarda mingta loyiha doirasida 45 ming aholi bandlegini ta'minlash ishlari boshlangan.

Chilonzor tumanidagi Al-Xorazmiy va Qatortol ko'chalarining 4,4 kilometr qismi ham tunu kun faoliyat yuritadigan gastronomik ko'chaga aylantirildi. Bu yerda 56 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, 146 ta qo'shimcha ish o'rni yaratildi hamda mazkur ko'chalarda kunlik 5 ming aholi qatnovi 30 ming kishiga yetishiga erishildi.

Bugun nafaqat Toshkent shahri, balki barcha hududlarda bu jarayon faollashgan. O'tgan yarim yillikda yurtimiz bo'ylab 22,4 mingga yaqin yangi savdo va servis obyektlari ishga tushirilishi natijasida 43,7 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. Bu borada yuqori ko'rsatkich Samarqand, Xorazm, Toshkent, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlari hissasiga to'g'ri kelyapti.

Ayniqsa, turizm xizmatlari daromadli sohaga aylangani ortidan tadbirkorlarda



katta qiziqish uyg'otmoqda. Birgina misol. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Xiva shahrida tarixiy meros va zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan “Arda Xiva” xalqaro turizm majmuasi bugun eng gavjum manzillardan biriga aylangan. Hududda 17 ta mehmonxona va mehmon uylari, 9 ta restoran, ochiq va yopiq akvaparklar, 3 ming o'rinli amfiteatr, 5 ta kino va konsert zali, 70 ta do'kon, 300 ta savdo rastasi, 11 ta hunarmandlar uyi, Sharq bozori va zargarlik markazi faoliyat yuritmoqda.

Ya'ni yurtimizda turizmning rivojlanib borayotgani barcha turdagi xizmatlarga talabni oshirmoqda. O'zbekiston keyingi yillarda turizm salohiyatini faol namoyon etishi barobarida, mamlakatdagi katta

o'zgarishlar, zamonaviy qiyofa, tarixiy shaharlarimizdagi yangilanishlar, iqtisodiy farovonlik ko'rsatkichlarining oshishi xorijliklarni o'ziga jalb etmoqda. Qolaversa, mamlakatimizning sayyohlik obyektlari va go'zal tabiatini namoyon etish uchun o'nlab yirik loyihalar amalga oshirilyapti. Hududlarda sayyohlik markazlari, so'lim manzillar barpo etilmoqda. Natijada joriy yilning o'tgan davri mobaynida yurtimizga 4,2 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurib, ularga 1,9 milliard dollarlik turizm xizmatlari ko'rsatildi. Tahlillarga ko'ra, qo'shni va qolgan MDH davlatlaridan tashqari, boshqa mamlakatlardan tashrif buyurgan turistlarning ulushi o'tgan yilgi 6,9 foizdan joriy yilda 8 foizga oshgan.

Chet ellik mehmonlarning ko'pi yurtimiz poytaxtiga kelish barobarida, tarixiy obidalarimizga sayohat qilishni xush ko'radi. Jahon amaliyotida aynan tarixiy obidalar atrofida turli xizmatlarni ko'rsatish hisobiga katta daromad qilish ommalashgan. Ya'ni sayohatga kelgan turist mehmonxona, restoran, dam olish maskanlari xizmatlariga ham talabgor bo'ladi. Shu bois, ayni yo'nalishda qator loyihalar yo'lga qo'yilmoqda. Jumladan, Qashqadaryo viloyatining Miraki, Amir Temur, Uloch va Polmon mahallalaridagi umumiy 240 gektar maydonda 400 million dollarlik 117 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 1,7 ming nafar aholini doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlash imkoniyatlari yaratilyapti. Miraki qishlog'ida zamonaviy dam olish markazi tashkil etilib, savdo va ko'ngilochar majmuasi barpo qilindi, bir vaqtning o'zida 600 nafar sayyohni qabul qiluvchi mehmonxonalar, 300 o'rinli oilaviy xostel ochildi.

Gap shundaki, xizmatlar ko'rsatish sohasi keng yo'nalish bo'lib, unda foydalanilmagan



imkoniyatlar ancha ko'p. Turizm va boshqa yo'nalishlarda juda ko'p loyihalarni amalga oshirish mumkin. Ulardan keladigan daromad esa bevosita mamlakat iqtisodiy rivojiga hissa bo'lib qo'shildi. Shu bois, mazkur yo'nalishdagi tadbirkorlar faol qo'llab-quvvatlanayapti, moliyaviy resurslar ajratilyapti. Xususan, o'tgan olti oyda xizmat ko'rsatish loyihalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan 44,6 mingta loyihaga 41,5 trillion so'm kredit mablag'lari ajratildi. Hududlarda yangi xizmat ko'rsatish va savdo obyektlarini tashkil etish uchun 1,2 ming gektar yer maydonlari 8,6 ming lotga ajratilib, auktsion savdolariga chiqarildi va shundan 559,8 gektar yer maydonlari sotildi. Shuningdek, ko'chma savdo faoliyatini amalga oshirish uchun 3,9 mingga yaqin yer maydonlari “K-savdo” platformasi orqali savdolariga chiqarilib, shundan 1,9 mingtasi sotildi.

Hozir yurtimizda zamonaviy turar joy maskanlarini qurish ko'lami ham nihoyatda yuqori. Ana shu uylarning pastki qavatlar ham turli yo'nalishlardagi xizmatlarni ishga tushirishda qulaylik yaratyapti. Masalan, “Yangi O'zbekiston” massivlarida qurilgan ko'p qavatli turar joylarning 1- va 2-qavatlarida tashkil etilgan 132 ta xizmat ko'rsatish obyektlarida 317 ta ish o'rni yaratildi.

Demak, har bir xizmat ko'rsatish obyekti, o'z navbatida, yangi ish o'rni, savdo aylanmasi, iqtisodiy manfaatdorlik degani. Bu bevosita ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Joriy yilning yarim yillik natijalariga ko'ra esa yurtimizda bozor xizmatlari hajmi 459,7 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,5 foizga o'sishi kutilmoqda.

NOMUHMIMDA OQAYOTGAN MUHIMLAR



Muhtarama ULUG‘OVA,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

**“Yengil va qulay”
deymiz-u...**

Hayot rivojlanaveradi, odamlar imkon qadar turmushni yengillashtiradigan samarali yo‘llarni izlayveradi. Aytaylik, keyingi paytlarda “yengil”, “qulay”, “arzon” degan sabablar bilan har xil sun‘iy mato, materiallardan tayyorlangan idishlar, kiyimlar sotib olish urf bo‘lyapti. Lekin unutmaylik, bu yengillik, samaradorlik salomatligimizga, jismoniy-ruhiy olamimizga ijobiy ta‘sir etsa, asosli yaxshiliklar olib kelsagina hikmatli, fazilatli bo‘ladi. Uymizdagi emallangan, zararsizligi sinalgan tog‘oray kostryulkalar, idishlarni bir chekkaga qo‘yib, sal qizdirilsa, tarkibi o‘zgarib, ichidagi mahsulotga asorat yetkazadigan plastmassa narsalarni sotib oldik. Buning orqasidan salomatligimiz, gigiyenaga e‘tiborimiz, ozodaligimiz, tejamkorligimiz yemirilib borsa, qani hikmat?

Mana, kundalik hayotimizdan bir misol. Ayni mevalar pishib, bozorlarda arzonchilik hukm surgan, hatto tut, o‘rik, olmalar tagiga to‘kilib yotgan paytda ulardan har kuni komputu sharbatlar tayyorlayotganlar ko‘pmi yoki yo‘l-yo‘lakay do‘konlardan har xil kimyoviy rang va ta‘m beruvchi moddalar qo‘shilgan suvlar sotib olib, yosh bolasigayam tutqazib qo‘yadiganlar bisyormi? Bu savolga javob o‘ylarkanman, “O‘ramizda kundalik sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yishga ongli yondashadigan, ayni yo‘nalishdagi ilmiy-ommabop adabiyotlarni, maqolalar, maslahatlarni o‘qiydiganu tanlaydiganlarning boshqalarga nisbati qanday ekan?” degan fikr ko‘ngildan o‘tdi. Rasmiy ma‘lumotlarga qaradim, savolning javobi achinarli. Bosma nashrlarga, kitobxonlikka jamiyat munosabatini yaxshilash, yuksaltirishga qaratilgan hukumat darajasidagi tadbirlarning samarasi bor, ammo bu natija hozircha arifmetik progressiya darajasidayam ko‘tarilayotgani yo‘q.

“**Ana endi videofilmlar tomoshabinlari bilan bolalar tarbiyasi mavzusidagi podkastlar kuzatuvchilarini solishtirib ko‘ramiz. Raqamlar mohiyatidagi holatni tasavvur etishga harakat qiling: “O‘smir yoshidagi farzand bilan muomala qoidalarini”ni 3 yil davomida 40 000, “Bir haftalik kelin”ni 3 oyda 2 900 000 kishi ko‘rgan. “Vitamin D tanqisligi va uning oqibatlari”ni 3 yilda 674 000, “Bir soatda buzilgan fotiha”ni 2 haftada 1 500 000 kishi kuzatgan.**




Tejalgan vaqtni nimaga sarflayapsiz?

“Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarni o‘qish, ma‘lumot olish hammaga qulay bo‘lib qoldi” — bu aksariyat odamlarning fikri. Hadisi sharifda ilm olish uchun Chin (Xitoy) ga bo‘lsa-da borish kerakligi aytilgan ekan, qo‘limizdagi zamonaviy vositadan jon-jon deb foydalanamiz-da!

Shu mulohaza bilan ijtimoiy tarmoqni asta “varaqlay” boshladim. Xonadonda sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yishga birinchi navbatda ayollar — uy bekalari bosh-qosh, g‘amxo‘r, jonkuyar bo‘ladi. Bu jihatdan ularga farzandlar tarbiyasi, pazandalik, bichish-tikish, tejamkorlik mavzularidagi ilmiy-ommabop maqolalar, maslahatlar hamisha qiziqarli bo‘lib kelgan. Esimda, bir vaqlar milliondan ortiq adadda chiqqadigan “Saodat” jurnalining ko‘pchilik mushariyolari nashri orqa sahifalardan — bola tarbiyasi, pazandalik, bichuv-tikuv, kashtachilikka oid materiallardan boshlab o‘qirdi. Ayol har qanday vaziyatda, birinchi navbatda, ona, uy bekasi-da! Hozir ham ijtimoiy tarmoqlarda shu mavzularda tayyorlab qo‘yilgan postlar, videolavhalar oz emas.

Shu maqsadda ijtimoiy tarmoqdan ayol-bekalarbop postlar, videolavhalar mavzusi, saviyasi va ularni kuzatuvchilar qanchaligini o‘rganmoqchi bo‘ldim. Turli TV va shaxslar tomonidan tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqqa qo‘yilgan “Qishloqi qizning shahardagi achchiq qismati” (Sarlavhalar qanday yozilgan bo‘lsa, shunday ko‘chirildi), “Yoshi o‘tgan qiz”, “Otaxonga aldangan qiz”, “Yangi kelinning siri chimildiqda fosh bo‘ldi”, “Oxiratni o‘ylamagan fohisha”, “Yetmish yoshli oshiq”, “Kelinimdan gumonim bor”, “Ikkinchisiga uylangan er”, “Noshukr kelin”, “Shubhali kelin”, “24 soatli kelin”, “Tungi klubdan topilgan kelin”, “Erini xiyonatini ko‘rgan ayol”, “Jazmanimga kelin bo‘ldim”, “Azaga aylangan to‘y”, “Maqtanchoq kelin”, “Qo‘shnisini ayoliga ko‘z olaytirgan yigit”, “Bir haftalik kelin”, “Bir soatda buzilgan fotiha”, “To‘yi buzilgan qiz”, “30 kunlik qaynona”, “Xotinim o‘lib, men boyib ketdim”, “Sotilgan ota-ona”, “Qaynonasini urgan kelin”, “Tobutdan chiqqan chaqaloq”, “Yetim kelin”, “Qaynonasini bo‘g‘ib o‘ldirgan kelin”, “O‘z erimga begonaman”, “Beva kelin”... kabi videofilmlar chiqib kela boshladi. Uzi, bu nomlarni shunchaki sahifalarni ko‘paytirish uchun yozmadim. To‘liq bo‘lmagan ayni ro‘yxatni ijtimoiy



tarmoqda bu kabi videolar chirmovudqek ildiz otayotganini his etishingiz uchun keltirdim. Ularni bir qadrdonimga o‘qib bergandim. “E, to‘xtating, ichim qorayib, ko‘nglim behuzur bo‘lib ketdi!” dedi.

Keyin ayollarning kundalik hayotdagi eng muhim mas‘uliyati — farzand tarbiyasi bilan bog‘liq mavzulardagi podkastlar, videolarni qarab chiqdim: “O‘g‘il bola tarbiyasidagi muhim jihatlarni”, “Nega bolalar bemehr bo‘lib ulg‘ayadi?”, “Bolaga dadil bo‘lishni o‘rgatishning 13 usuli”, “Vitamin



D tanqisligi va uning oqibatlari”, “O‘smir yoshdagi bolalar bilan muomala qoidalarini”... Ana endi videofilmlar tomoshabinlari bilan bolalar tarbiyasi mavzusidagi podkastlar kuzatuvchilarini solishtirib ko‘ramiz. Raqamlar mohiyatidagi holatni tasavvur etishga harakat qiling: “O‘smir yoshidagi farzand bilan muomala qoidalarini”ni 3 yil davomida 40 000, “Bir haftalik kelin”ni 3 oyda 2 900 000 kishi ko‘rgan. “Vitamin D tanqisligi va uning oqibatlari”ni 3 yilda 674 000, “Bir soatda buzilgan fotiha”ni 2 haftada 1 500 000 kishi kuzatgan. Bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq o‘zgarishlar mavzusidagi ruhiyatshunos subhatini 5 yilda 511 000, “To‘yi buzilgan” qiz videosini 5 oyda 3 500 000 kishi tomosha qilgan... Ko‘rinib turibdiki, ilmiy-ma‘rifiy podkastlar, subhatlar kuzatuvchilari son jihatidan videofilmlar tomoshabinlarining changida qolib ketyapti.

Esiz, million-million soatlar...

Endi nima uchun gapni ayollar qulay, arzon, chiroyli narsalar sotib olishga berilib ketayotgani, jismoniy va ruhiy salomatlikka, oilada mo‘tadil muhit barqaror



bo‘lishiga bevosita ta‘sir etadigan dasturxondagi taomlarni tayyorlashga hafsalamiz, ixlosimiz, e‘tiborimiz, vaqtimiz tanqislashib borayotganidan boshlab, kutilmaganda ijtimoiy tarmoqlarga o‘tib ketganim sababini anglagan bo‘lsangiz kerak. Juda ko‘p opa-singillarimiz o‘zlari bilib-bilmay farzand tarbiyasidan, ro‘zg‘or ishlardan “iqtisod qilgan” vaqlarini nafaqat turmush tarzlarini tashqi qiyofalarini o‘zgartirishga, shuningdek, qalblardan milliy urf-odatlarini yemirib tashlaguvchi, boyligu mansabni orzu-istaklarning bosh mezonini deb targ‘ib etuvchi, o‘rni kelganda, ilmiy va hunarli bo‘lishdan ko‘ra, yolg‘onu hiylalar bilan ish bitirishni, o‘zbek oilasida kattayu kichiklar o‘rtasida saqlanib kelgan

Shu jihatdan qaraganda, hozir ijtimoiy tarmoqlarda “bodrab yotgan” videofilmlar bu janr oldiga qo‘yilgan talablarning birortasiga javob bermaydi! Uydirma voqealar, milliy urf-odatlarimizga teskari talqinlar, na davlatchilik va na insoniy qonunlarga to‘g‘ri kelmaydigan yechimlar, uzil-kesil ijobiy va salbiy qutblarga bo‘lib tashlangan qahramonlarning soxta muammolar tegirmoniga suv quyishi... va yakunda ular bir “dumalab” boshqacha tabiatli qahramonga aylanishini yuqorida tilga olingan videolarning hammasida ko‘rish mumkin.

Deyarli barcha videolarda ijobiy qahramonlar mehnat yoki iztiroblar girdobida, qolganlar asosan divanda, oshxonada o‘tirib yoki tik turganacha uning kambag‘alligi, pul topmasligi, to‘ydan keyin o‘zgarib qolgani kabi masalalarni muhkoma qiladi. Hamma videofilmlardagi qahramonlar qiyofalari... yoshu keksa rolini bajargan aktyorlarning qoshi, ko‘zi, lablari, yuzlari bitta pardozchining qolipidan chiqqandek go‘yo. Ayrim videofilmlar voqeasi ancha muddat cho‘zilgan bo‘lsa ham qahramonning libosi o‘zgarmaydi. Tasvirchining “mahorati” to‘y voqealarini videoga olayotgan havaskorning ishidan deyarli farq qilmaydi. Mana, ayrim misollar:

Mehribonlik uyida tarbiyalangan, yoshi o‘n yettiga yetib, mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan qizning kuyovi — “sevdim, o‘ldim, kuydim” bilan uylangan yosh yigit to‘ydan keyinroq qiz o‘ziga uy sotib olishi uchun davlatdan olgan pulini tog‘asiga berib qo‘ygani uchun shunday asabiy lashadiki, “Men senga yetim bo‘lganing uchun uy berilishini o‘ylab uylanganman”, degan gapni oshkor aytadi. Hatto kelinga qo‘l ko‘taradi. Qayerdanligi noma‘lum, xuddi osmondan tushgandek, kimdir kelinga har kuni kartoshka olib kelib beradi, kelin uni sotib, pulini uyiga olib keladi. Kasal bo‘lib kartoshkaning bir qismini sotilmay etarqoq uyga kelsa, dang‘illama hovlining uy bekasi bo‘lgan qaynona hamda ishini tayini yo‘q kuyov: “Nimaga erta kelding, bor, hammasini sotib keyin kelasan”, deb haydaydi. Xullas, kelin bolasi bilan bu uydan qochib ichki ishlar bo‘limiga boradi. Ichki ishlar xodimi bitta sahna ko‘rinishida ham tergovchi, ham prokuror, ham sud idorasining ishini bajaradi. Oilani ajratib, kelin yolg‘iz qolgani uchun unga bir xonali uy berilganini aytadi — kattalar uchun ertak, shunday emasmi?

Yana bir videofilmda og‘ir dardga uchragan onasini davolatgani pul undirish uchun jismonan, aqlan, ma‘nan yetuklik yoshda bo‘lgan ikki opa-singilning bittasi (27 yoshda) yetmish yoshli cholg‘a turmushga chiqadi. O‘zidan ancha kichkina qudasini davlatlashga yordam bergan kuyov yosh xotini hayotini ham o‘z dunyosiga qamaydi. Cholning ellik yoshlar atrofidagi qizi ham farzandi tengi “ona”siga zulm o‘tkazishda

otasidan qolishmaydi. Xullas, kelinning homiladorligidan vahimaga tushgan kuyov va merosxo‘r qizining ur-surlari natijasida kelin yiqilib hushini yo‘qotganda, qiz va otaning vijdoni, shafqati birdan uyg‘onib ketadi, bu yog‘i omon-omon, “murodo maqsadlariga yetibdi”, degandek...

Videofilmlar boshdan oyoq tortishuvlar, shubhalar, urish-janjallar, tuhmatu uydirmalar, ikki tomonga bo‘linib olgan qahramonlarning o‘zaro noroziliklari asosiga qurilgan. Ammo bu notinchliklar, asabiyliklar, kuyib-yonishlarning asosida na shaxs, na oila, na jamiyat sha‘ni, takomili va taraqqiyotiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan zarracha sabab, dard yo‘q.

Ilgari bekorch ko‘ni-qo‘shnilar ko‘chada o‘tirib asosan kelinlari haqida gaplashadi der edik. Endi esa o‘zini videofilm yaratishga iqtidorli deb o‘ylagan ayrim jamoalar, shaxslar ijtimoiy tarmoqlarda millionlab odamlarga qaynona-kelin g‘iybati, yolg‘on uydirmalari bilan soddayu tajribasiz odamlarning hayot haqidagi tasavvurlarini buzyapti. Jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shayotgan, oilalarni mahallalarning faxri bo‘lgan onalar, kelinlar sha‘nini yerga uryapti. Afsuski, odobni beodobdan o‘rganadiganlar emas, beodobdan beodoblikni o‘rganadiganlar ham oz emas. Nomlari keltirilgan aksariyat videofilmlardagi xudbinlik, zulm, andishasizlik, tuhmat, shafqatsizlik, uyatsizlik, bekorchilik, ta‘magirlik, yengil-yelpikliki kuzatib o‘tirib, “Shunday qilsa bo‘larkan-ku”, deb xulosa chiqarayotganlar, bunday tomoshalarni ko‘raverib, oqibati baxtsizlik bo‘lgan illatlarni o‘z tabiatiga beixtiyor singdirib olayotganlar kammi, ko‘pmi?

Yana eng o‘riqli jihat. “Quvurdan suv tomchilab tursa, bir kunda (haftada, oyda) falon miqdordagi obihayot isrof bo‘ladi”, degan gapni ko‘p eshitganmiz, o‘qiganmiz. Biz kuzatgan videofilmlar asosan 40-50 daqiqa orasida davom etadi. Bema‘ni, axloqbuzar videofilmlarga termilgan millionlab tomoshabinlar vaqti qo‘shilsa, qanaga raqam chiqarkan? Bitta million emas, kun oralab millionlab yurtdoshlarimizning aziz, g‘animat, topilmas umri bu ma‘naviy ofatga yem bo‘lmoqda.

Na moddiy, na madaniy, na ma‘naviy tomondan foydasi bo‘lmagan bunday “kinoasar”larni ham bir marta foydalanishga mo‘ljallangan yaltiroq, jimjimador, diqqatni tortadigan sun‘iy buyumlarga o‘xshatish mumkin. Unga azbaroyi bekorchilik, muhimdan nomuhimni farqlamaslik, to‘g‘ri maslahat olmaslik tufayli sarflagan vaqt uvol. Soatlaringni, ko‘z nuringni, asabingni sarflab, evaziga vaqting-naqdingni, jismoniy-ma‘naviy salomatligingni, chiroyli fazilatlaringni boy berasan. Ayol, ona, ota, farzand, shaxs sifatida zimmangda bo‘lgan vazifalarni bajaramaslik oqibatida oila va jamiyatda hurmatning, qadriga, obro‘yga, moddiy manfaatlarindan mosuvo bo‘lasan.

Qalbingda yorug‘lik, yaxshi ishlarga rag‘bat, hayotga muhabbat, ezgulikka intilish tuyg‘ularini tarbiyalaydigan haqiqiy badiiy va san‘at asarlarimiz oz emas. Ziyolilar, ustozlar, mahalla faollari, yoshlar yetakchilari hamkorlikda ularni targ‘ib qilish, jamiyatga keng yoyish yo‘llarini topish, turmushga tatbiq etish buginning eng dolzarb vazifalaridan biri. Xalqimiz ma‘naviyati, madaniyatini asrash, yuksaltirishga mas‘ul idora, tashkilotlar jamiyat ongiga, axloq odobiga salbiy ta‘sir etishi mumkin bo‘lgan har qanday vositalar yo‘lini qonuniy asosda to‘shish choralarini ko‘rishga tashabbuskor bo‘lishi kerak. Elning dono maqolidi aytiladi:

Og‘ziga kelganni demak

nodonning ishi,

Oldiga kelganni yemak

hayvonning ishi.

Ulg‘ayib kelayotgan avlodga xoh moddiy, xoh ma‘naviy bo‘lsin, barcha ne‘matlardan to‘g‘ri, o‘rinli, yaxshi niyat va ezgu oqibatni ko‘zlab foydalanishda katta avlod ibrat bo‘lishi shart.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** — 746.

34972 nusxada bosildi.
34972 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-mabaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamkulov
Musahhih: Sherzod Mahmudov

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘Za yakuni — 21:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05